

1. 1544-yilda sodir bo'lgan voqeani toping.  
A) B. Varenius «Umumiy geografiya» nomli kitob yozdi.  
B) S. Myunster «Kosmografiya» nomli kitob yozdi.  
C) I. Kantning «Tabiiy geografiyadan ma'ruzalar» nomli kitobi nashr qilindi.  
D) J. Laperuz rahbarligida fransuz ekspeditsiyasining dunyo bo'ylab sayohati boshlandi.

2. GESlar, foydali qazilma konlari qanday shartli belgilar yordamida tasvirlanadi?  
A) masshtabli  
B) chiziqli  
C) harfli  
D) masshtabsiz

3. Bundan 4–3,5 mlrd yil avval geografik qobiqning qaysi qismlari shakllangan?  
A) Quyosh sistemasi  
B) Yerning tashqi qobiqlari  
C) Yer sayyorasi  
D) Mantiya va yadro

**4. Matni o'qing.**

“XVII asrda G. Gudzon, A. Makkenzi va boshqalar materikning sharqiy va shimoliy qismlarini o'rganishdi. XX asr boshida R. Amundsen birinchi bo'lib materikning shimoliy qirg'oqlari bo'ylab suzib o'tdi va Shimoliy magnit qutbining geografik o'rnini aniqladi”.

**Matnda berilgan ma'lumotlar qaysi materikka oid ekanligini toping.**

- A) Yevrosiyo  
B) Janubiy Amerika  
C) Antarktida  
D) Shimoliy Amerika

5. Qaysi javobda Shimoliy Muz okeaniga tegishli bo'lmagan dengiz nomi berilgan?  
A) Barents  
B) Shimoliy  
C) Grenlandiya  
D) Norvegiya

**6. Matni o'qing.**

Ushbu okean organizmlarning turli-tumanligiga ko'ra birinchi o'rinda turadi. Dunyo okeanidagi tirik organizmlarning yarmi shu okeanga to'g'ri keladi. Okeanning shimoliy qismida lososimon baliqlarning 95 % i yashaydi. Boshqa okeanlarga nisbatan hayvonlar turi 3–4 baravar ko'p.

**Matnda berilgan ma'lumotlar qaysi okeanga oid ekanligini aniqlang.**

- A) Atlantika

- B) Tinch  
C) Shimoliy Muz  
D) Hind

7. Filippin orollari qaysi iqlim mintaqasida joylashgan?

- A) subtropik  
B) tropik  
C) ekvatorial  
D) subekvatorial

**8. Matni o'qing.**

“Materik tabiatining xilma-xilligi uni ikkita yirik qismga bo'lishga imkon beradi. Bular: Sharq va G'arb — o'lkasi. O'z naybatida, bu o'lkalar ko'pgina tabiiy geografik oblastlarga ajratilgan.

**Matnda berilgan ma'lumotlar qaysi materikka oid ekanligini toping.**

- A) Shimoliy Amerika  
B) Afrika  
C) Avstraliya  
D) Janubiy Amerika

9. Quyidagi qaysi obyekt ham yarimorol, ham oqim, ham qo'ltiq nomini bildiradi?

- A) Mozambik  
B) Norvegiya  
C) Meksika  
D) Kaliforniya

10. Shimoliy Amerika materigiga oid to'g'ri ma'lumotlar berilgan javobni toping.

- A) Materik tabiati va xalqlari hayotini rus olimlaridan V. V. Yunker, Y. P. Kovalevskiy, A. A. Yeliseyev, N. I. Vavilovlar tekshirdilar. N. I. Vavilov tashkil etgan ekspeditsiya 6 000 dan ortiq madaniy o'simliklardan namuna oldi.  
B) Materikni ilmiy jihatdan o'rganishda nemis sayyohi A. Gumboldt va fransuz botanigi E. Bonplanning xizmatlari katta bo'ldi. Materikning tabiati va aholisi haqidagi qiziqarli ma'lumotlarni rossiyalik olimlardan G. I. Langsdorf, N. G. Rubsov, A. I. Voyeykov, N. I. Vavilovlar to'pladilar.  
C) XVII asrda G. Gudzon, A. Makkenzi va boshqalar materikning sharqiy va shimoliy qismlarini o'rganishdi. XX asr boshida R. Amundsen birinchi bo'lib materikning shimoliy qirg'oqlari bo'ylab suzib o'tdi va Shimoliy magnit qutbining geografik o'rnini aniqladi.  
D) XVIII — XIX asrlarda tashkil etilgan sayohat va ilmiy ekspeditsiyalar paytida materikni ilmiy jihatdan o'rganish ishlari olib borildi. Olimlar materikning turli qismlarini atroflicha o'rgandilar. XX asrdagi olib borilgan ilmiy



ishlar avvalgi tasavvurlarni kengaytirdi va yangi ma'lumotlar bilan boyitdi.

**11.** Qozog'iston past tog'larining g'arbiy qismi, Shimoliy Tyanshan tog'lari qaysi tog' hosil bo'lish bosqichida ko'tarilgan?

- A) gersin
- B) baykal
- C) kaledon
- D) kimmeriy

**12. Matnni o'qing.**

"Okrug iqlimi O'zbekiston tekislik qismidagiga o'xshash bo'lib, qishi sovuq, yozi issiq va quruq, yog'in kam. Okrug shimol, shimoli sharqdan tog'lar bilan o'ralganligidan qishda havo haddan tashqari sovib ketmaydi. Yanvarning o'rtacha harorati  $-0,9 - 1,9^{\circ}\text{C}$ . Ba'zan Arktika havosi kirib kelganda eng past harorat  $-24 - 35^{\circ}\text{C}$  gacha pasayadi". **Matndagi ma'lumotlar qaysi okrugga tegishli ekanligini toping.**

- A) Qashqadaryo
- B) Farg'ona
- C) Chirchiq-Ohangaron
- D) O'rta Zarafshon

**13.** Mamlakatimizdagi qaysi qo'riqxonada dinovavr izlari, bir qator arxeologik yodgorliklar, g'orlar muhofaza ostiga olingan?

- A) Zomin
- B) Hisor
- C) Kitob
- D) Surxondaryo

**14.** "Okrug negizida bo'r davri yotqiziqlari joylashgan. Uning ustilarini paleogen, neogen va antropogen alluvial yotqiziqlari (gil, gilli qum, qumoq va boshqalar) qoplab olgan. Okrugda qazilma boyliklardan har xil tuzlar, qurilish materiallari, Sulton Uvays tog'ida marmar, temir koni mavjud". Ushbu ta'rif mamlakatimizdagi qaysi tabiiy geografik okrugga tegishli?

- A) Ustyurt
- B) Quyi Zarafshon
- C) Quyi Amudaryo
- D) Qizilqum

**15.** Jinnidaryoga oid ma'lumotlar berilgan javobni toping.

- A) Uzunligi 115 km bo'lib, Hisor tizmasidagi Botirboy va Seversev muzligidan boshlanuvchi Botirboy bilan Xonaqasuv irmog'ining qo'shilishidan vujudga keladi. U qor-muzliklarning erishidan to'yinadi.
- B) Uzunligi 68 km bo'lib, Chaqchar tog'idan boshlanadi. U qorlarning erishidan va yerosti

suvlaridan to'yinib, o'rtacha yillik suv sarfi sekundiga 5,90 m kub bo'lib, uning 63,9 foizi mart — iyun oylarida oqadi.

C) Uzunligi 108 km bo'lib, Hisor tizmasining janubi-g'arbiy yonbag'ridan boshlanadi. U qorlarning erishidan to'yinib, 61,6 foizi mart — iyun oylarida oqadi.

D) Hisor tizmasining Oqota va Sherdog' tog'lari orasidagi buloqlardan boshlanib, uzunligi 57 km ni tashkil etadi. U qor va muz erishidan to'yinib, suvi mart — iyun oylarida ko'payadi.

**16.** IES qurilishi munosabati bilan barpo etilgan shaharni toping.

- A) Taxiatosh
- B) Olmaliq
- C) Bekobod
- D) Quvasoy

**17.** "Viloyatda mamlakatimiz aholisining 4 foizi jamlangan. Aholining deyarli yarmi shaharlarda yashaydi. Viloyat aholisining 81 foizidan ko'prog'ini o'zbeklar tashkil etadi" Ushbu ta'rif qaysi viloyatga tegishli?

- A) Sirdaryo
- B) Jizzax
- C) Navoiy
- D) Xorazm

**18.** Donli ekinlar orasida eng ko'p ekiladigan ekin turini toping.

- A) sholi
- B) makkajo'xori
- C) bug'doy
- D) arpa

**19.** Jahonda tabiiy gaz qazib chiqarishda qaysi davlat birinchi o'rinni egallaydi?

- A) Rossiya
- B) AQSH
- C) Eron
- D) Qatar

**20.** Germaniyaga tegishli avtomobil konsernlarini toping.

- 1) «Volvo»; 2) «Mercedes-Benz»; 3) «Tatra»; 4) «Folksvagen».
- A) 1, 3
- B) 2, 4
- C) 2, 3
- D) 1, 4

**21.** Afrikaning qaysi subregioni O'rta va Qizil dengiz, Atlantika okeaniga chiqish imkoniyatiga ega?

- A) Shimoliy Afrika
- B) G'arbiy Afrika



- C) Sharqiy Afrika
- D) Markaziy Afrika

**22. Matnni o'qing.**

“Dehqonchilikning bosh tarmog‘i donchilik. U, ayniqsa shimoliy viloyatlaridagi lalmi yerlarda yaxshi rivojlangan. Janubiy viloyatlarda dehqonchilik sug‘orish yordamida rivojlantirilib, bu yerda uning asosiy tarmoqlari sabzavotchilik, sholichilik, polizchilik hisoblanadi”.

**Matndagi ma'lumotlar qaysi mamlakatga tegishli ekanligini toping.**

- A) Turkmaniston
- B) Qirg‘iziston
- C) Tojikiston
- D) Qozog‘iston

**23. Matnni o'qing.**

“Subregion mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy darajasi bir-biridan ancha farq qiladi. Subregion mamlakatlarining xalqaro ixtisoslashuvi asosan ko‘p tarmoqli sanoat, jumladan, yoqilg‘i-energetika, qora metallurgiya, rangli metallurgiya, kimyo, mashinasozlik, yengil sanoat, oziq-ovqat ishlab chiqarishlari bilan belgilanadi. Ba‘zi davlatlar dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining eksporti bilan ham ajralib turadi”.

**Matnda berilgan ma'lumotlar qaysi subregionga oid ekanligini toping.**

- A) G‘arbiy Yevropa
- B) Shimoliy Yevropa
- C) Sharqiy Yevropa
- D) Janubiy Yevropa

**24. Braziliya tabiiy resurslariga oid to‘g‘ri ma‘lumotlar berilgan javobni toping.**

- A) Mamlakatda neft, ko‘mir, temir rudasi, boksit, nikel, uran, olmos va boshqa foydali qazilmalarning yirik konlari mavjud. Hududining katta qismi ekvatorial va subekvatorial iqlim mintaqalarida joylashganligi sababli iqlim sharoitiga yuqori darajadagi namgarchilik va issiqlik xosdir.
- B) Mamlakatning sharqiy qismi qadimgi platformada joylashgan bo‘lib, asosan, tekislik va kuchli parchalangan yassi tog‘liklardan iborat bo‘lsa, Tinch okeanga tutash g‘arbiy qismi baland Kordilyera tog‘lari bilan band. Hududida uran, temir, nikel, mis, qo‘rg‘oshin, rux, oltin, neft va tabiiy gazning yirik konlari mavjud.
- C) Mamlakat ko‘mir, neft, tabiiy gaz, temir, turli rangli metallar rudalari, mineral tuzlarning yirik zaxiralari ega. Ayniqsa, mamlakatning g‘arbiy tog‘li hududlari mineral resurslariga boy. Ammo sanoat ishlab chiqarishining hajmi yirikligi tufayli mamlakat mineral xomashyoning ko‘p

turlarini import qiladi. Hududi yirikligi uchun tabiiy sharoiti juda xilma-xil.

D) Hududi, asosan, tekislik va kuchli parchalangan platolardan iborat. Mamlakat xilma-xil foydali qazilmalarga boy. Temir, mis, nikel, uran, boksit rudalari, ko‘mir, oltin, olmos zaxiralari bilan jahon miqyosida alohida ajralib turadi.

**25. Jamiyatning tabiatga ta‘siri ortib borishining qaysi bosqichi nisbatan uzoq davom etgan bosqich bo‘lib, tabiatga kuchsiz, ba‘zi tabiat komponentlariga kuchliroq ta‘sir ko‘rsatilgan?**

- A) qishloq xo‘jalik inqilobi
- B) fan-texnika inqilobi
- C) ibtidoiy jamoa
- D) sanoat inqilobi

**26. Kishilarning eng qadimiy oddiy uyushmalari nima deb ataladi?**

- A) etnos
- B) qabila
- C) elat
- D) millat

**27. Qaysi mintaqaga aholisining yosh tarkibida mehnat yoshidagi aholining ulushi eng past ko‘rsatkichga ega?**

- A) Amerika
- B) Yevropa
- C) Avstraliya va Okeaniya
- D) Afrika

**28. Sansan megalopolisi qaysi davlatda joylashgan?**

- A) Yaponiya
- B) AQSH
- C) Xitoy
- D) Koreya Respublikasi

**29. Ushbu yozuvsiz xaritada 3 raqami bilan qaysi bo‘g‘iz tasvirlangan?**



- A) Kuk
- B) Torres



- C) Bass  
D) Karpentariya

30. Shimoliy Amerika materigining yozuvsiz xartasida San-Lavrentiy va Missisipi daryolari qaysi raqamlar bilan tasvirlangan?



- A) 1, 3  
B) 2, 4  
C) 2, 3  
D) 1, 4

31. O'rta Osiyoning yozuvsiz xartasida Qoplonqir platosi qaysi raqam bilan tasvirlangan?



- A) 1  
B) 2  
C) 3  
D) 4

32. Ushbu yozuvsiz xaritada 2 va 4 raqamlar bilan qaysi tog'lar tasvirlangan?



- A) Bo'kantov va Quljuqto'v  
B) Tomditov va Ovminzatov  
C) Jetimtov va Qozoqto'v  
D) Tomditov va Quljuqto'v

33. Quyidagi cho'qqilarning balandliklarini o'zaro muvofiqlikda belgilang.

№	Nomi	Variant	Balandligi, metr
1	Kilimanjaro	a	4620
2	Margerita	b	5895
3	Ras-Dashen	c	5109
4	Tubkal	d	4165

- A) 1-d, 2-c, 3-b, 4-a  
B) 1-b, 2-c, 3-a, 4-d  
C) 1-c, 2-b, 3-d, 4-a  
D) 1-d, 2-a, 3-c, 4-b

34. Jahonda to'liq shakllangan megalopolislar va ularning eng yirik aglomeratsiyasi mos ravishda to'g'ri berilgan javobni toping.

№	Megalopolis	Variantlar	Eng yirik aglomeratsiyasi
1	Shimoli-sharqiy	a	Nyu-York
2	Tinch okeanbo'yi	b	Chikago
3	Ko'lbo'yi	c	Los-Anjeles

- A) 1-c, 2-b, 3-a  
B) 1-a, 2-c, 3-b  
C) 1-b, 2-c, 3-a  
D) 1-c, 2-a, 3-b

35. Osiyo subregionlari jadvalida Janubi-g'arbiy Osiyo subregioniga kiruvchi davlatlar noto'g'ri berilgan qatorlarni toping.

№	Davlatlar
1	Pokiston
2	Armaniston
3	Bangladesh
4	Iroq
5	Maldiv orollari
6	Qatar

- A) 1, 3, 5
- B) 2, 4, 6
- C) 1, 3, 6
- D) 2, 4, 5


36. Topografik xaritada quyidagi qaysi cho'qqi eng ko'p gorizontallar bilan tasvirlanadi.

- A) Mingbuloq
- B) Zebon
- C) Zarkosa
- D) Hayotboshi

37. Bishkekda (IV soat mintaqasi) soat 18<sup>30</sup> bo'lganda, Seulda (IX soat mintaqasi) soat necha bo'ladi?

- A) 15<sup>00</sup>
- B) 23<sup>30</sup>
- C) 21<sup>00</sup>
- D) 13<sup>30</sup>

38. Quyidagi chizmadan foydalanib, yillik amplitudani aniqlang.



- A) 26 °C
- B) 28 °C
- C) 27 °C
- D) 30 °C


39. Dengiz sathida havoning me'yoriy bosimi 760 mm Hg ni ko'rsatdi. Shu vaqtda Fudziyama vulqonida havo bosimi qanchaga teng bo'ladi?

- A) 378,2 mm Hg
- B) 382,4 mm Hg
- C) 385,7 mm Hg
- D) 390,8 mm Hg

40. "Bu zona Braziliya hamda Gviana tog'liklarining shimoliy yonbag'irlarini egallaydi. Braziliya tog'ligidagi o'rmonlarda yomg'irli mavsum uzoq davom etadi, qurg'oqchil davr esa uch-to'rt oygacha cho'ziladi. Shu sababli o'rmonlarda bargini to'kadigan daraxtlar soni orta boradi". Ushbu ta'rif Janubiy Amerikaning qaysi tabiat zonasiga tegishli?

- A) subekvatorial o'rmonlar
- B) savannalar
- C) ekvatorial o'rmonlar
- D) cho'l va chalacho'llar

41. Ushbu diagramning 1-ustunidagi ko'rsatkich Yevropadagi qaysi davlatning maydoniga tegishli ekanligini aniqlang (km<sup>2</sup> hisobida).



- A) Italiya
- B) Fransiya
- C) Germaniya
- D) Polsha



42. Osiyo qit'asidagi iqtisodiyoti eng qoloq agrar davlatlarni belgilang.

- A) Myanma, Shri-Lanka, Vyetnam
- B) Iordaniya, Nepal, Bangladesh
- C) Mongoliya, Yaman, Kambodja
- D) Afg'oniston, Laos, Butan

43. Mo'ynoq tumanining aholi zichligi 2015-yil holatiga ko'ra 0,8 kishi/km<sup>2</sup> ni, maydoni esa 37,8 ming km<sup>2</sup> ni tashkil qildi. 2015-yil holatiga ko'ra Mo'ynoq tumani aholisi qanchani tashkil qilgan?

- A) 31,1 ming
- B) 32,5 ming
- C) 30,2 ming
- D) 29,7 ming

44. 2021-yil holatiga ko'ra, G'allaorol tumani aholisi 175 ming kishini, qishloq aholisi 113,6 ming kishini tashkil qildi. G'allaorol tumanining urbanizatsiya darajasini toping.

- A) 35 %
- B) 36,2 %
- C) 34,4 %
- D) 37,7 %

45. 1993-yilda Eritreya qaysi davlat tarkibidan ajralib chiqib, suveren davlat maqomiga ega bo'ldi?

- A) Efiopiya
- B) Sudan
- C) Misr
- D) Somali

@geografiya — OTM